

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.19/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI**

ABDUNABIYEV TOLIB ABDUMALIKOVICH

**AHOLI VA HUDUDLARNI TABIIY VA TEXNOGEN
XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA
QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong‘in, sanoat, yadro
va radiatsiya xavfsizligi**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of the of doctor of philosophy (PhD)

Abdunabiyev Tolib Abdumalikovich

Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni takomillashtirish..... 3

Абдунабиев Толиб Абдумаликович

Совершенствование защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера..... 21

Abdunabiyev Tolib Abdumalikovich

Improving the protection of the population and territories from natural and man-made emergencies..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.19/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI**

ABDUNABIYEV TOLIB ABDUMALIKOVICH

**AHOLI VA HUDUDLARNI TABIIY VA TEXNOGEN
XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA
QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong‘in, sanoat, yadro va radiatsiya
xavfsizligi**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2974 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (akademiya.fvv.uz) ba «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kurbanbayev Shuxrat Ergashevich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gapparov Furqat Axmadovich

texnika fanlari doktori (DSc), professor

Sabirov Erkaboy Erkinbayevich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/2025.27.12.T.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent shahar, 100102, Yangiheyot tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy. Telefon: (71) 258-56-57 E-mail:info@akademiya.fvv.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Toshkent shahar, 100102, Yangiheyot tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy. Telefon: (71) 258-56-57. E-mail:info@akademiya.fvv.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.I.Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

Q.X.Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d.(PhD), dotsent

R.R.Nurmamatova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi yillarda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning ko‘lam va oqibatlari sezilarli darajada ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bunday vaziyatlar aholi hayoti va sog‘lig‘iga, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hamda hududlarning barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf tug‘dirib, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini ilmiy asosda takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi jarayonida kuch va vositalarni samarali boshqarish, boshqaruv organlari rahbar-xodimlarining tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish hamda aholini muhofaza qilish tadbirlarini oldindan puxta rejalashtirish global miqyosda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishda boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. Xorijiy tajribada xavf tahliliga asoslangan boshqaruv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda qarorlar qabul qilish modellarini ishlab chiqish, shuningdek, rahbar kadrlarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashning zamonaviy o‘quv-uslubiy mexanizmlarini joriy etish muhim yo‘nalish sifatida e‘tirof etilmoqda. Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlar sharoitida axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, vaziyatni tezkor baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiluvchi algoritm va modellarni takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Respublikamizda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan islohotlar, jumladan, “Yangi O‘zbekiston” ma‘muriy islohotlari doirasida boshqaruv tizimini zamon talablariga moslashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda¹. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning ulushi yuqori bo‘lib, ularning ko‘lami va yetkazadigan zarari tabiiy favqulodda vaziyatlarga nisbatan jiddiyroq ekanligi kuzatiladi. Bu esa Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi boshqaruv organlari rahbarlarining kuch va vositalarni boshqarish bo‘yicha kasbiy malaka, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, favqulodda vaziyatlarni xavf manbalari va omillaridan kelib chiqib boshqarish, axborot almashinuvi hamda qaror qabul qilish algoritmilarini takomillashtirish mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratini asoslab beradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish davlat tizimlari tajribasida boshqaruvning zamonaviy tarmoqli shakllariga bo‘lgan e‘tibor tobora ortib, davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv, tog‘-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv, suvda-qutqaruv va radiatsion-kimyoviy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tarqiqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

muhofaza ishlarini tashkil etish va amalga oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Chunki, sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarda boshqaruvni tezkor va to'g'ri tashkil etilmasligi odamlarning hayoti va sog'lig'iga, mol-mulkiga hamda atrof tabiiy muhitga katta zarar etkazadi. Boshqaruv organlari rahbar-xodimlari va mutaxassislarining mazkur sohadagi tayyorgarlik ko'rsatkichlari, yuqori samarali xususiyatlarga ega bo'lgan harakatlanish usullarini takomillashtirish borasida ham ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etmoqda.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyun kunidagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-sonli va 2019-yil 10-aprel kunidagi "O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5706-sonli Farmonlari hamda 2019-yil 10-aprel kunidagi "Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4276-sonli Qarori qabul qilingan.

2021-yil 13-sentabr kuni qabul qilingan, "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi 713-sonli, 2021-yil 15-dekabr kuni qabul qilingan "Favqulodda holat to'g'risida"gi 737-sonli hamda 2022-yil 17-avgust kuni qabul qilingan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi 790-sonli O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning "Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borishning 92-maqsadi - Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish ustuvor yo'nalishi hamda asosiy vazifalari belgilangan. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-yanvar kunidagi "Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2-sonli hamda 2023-yil 29-aprel kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-sonli me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Favqulodda vaziyatlar vazirining 2020-yil 30-aprel kunidagi 153-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yong'in xavfsizligini ta'minlash, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularni bartaraf etish sohasida istiqbolli amaliy hamda innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarining ro'yxati"ga mos ravishda olib borilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi va xorijda keyingi yillarda bir qator olimlar tomonidan aholini va hududlarni

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning avtomatlashtirilgan boshqaruvini tashkil etish, yangi algoritmlar va modellarini ishlab chiqish va ularning dasturlarini yaratish hamda ularni tadqiq etish va joriy etish texnologiyasining nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etiladigan kuch va vositalarni boshqarish nazariyasi va amaliyotiga V.G.Shaptala, I.U.Yamalov, T.L.Lyaxovets, P.A.Monaxov, S.A.Kosyachenko, A.N.Nerovnix, N.L.Prisyajnyuk, A.V.Matveyev, V.A.Sednev va boshqa tadqiqotchilar katta hissa qo'shganlar.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha o'zbek olimlaridan T.J.Turagalov, A.E.Boymirzayev, N.M.Djumayev, A.M.Nurmatov, B.Qurbonov, R.Nurmamatov, M.X.Tinnibekovlarning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan va ma'lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida asosan favqulodda vaziyatlar tasnifi, kuch va vositalarning tarkibi, ularning vazifalari va ixtisosliklari bo'yicha yondashilgan.

Mazkur masalalarni yanada kengroq tadqiq qilinishi bo'yicha boshqaruvga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tadqiq etish hamda boshqaruv maskanlarini texnologik vositalar bilan jihozlash yuzasidan ilmiy-asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni tajriba sinovdan o'tkazish mazkur dissertatsiya tadqiqotida o'z yechimini topgan dolzarb va muhim vazifalar hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Maxsus avariya-tiklash boshqarmasining 2022-2023-yillarga mo'ljallangan 03/9-271-sonli «Совершенствование механизмов взаимодействия подразделений с применением телекоммуникационных технологий при предотвращении и ликвидации чрезвычайных ситуаций» mavzusidagi innovatsion xo'jalik shartnoma loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarga yetkaziladigan zarar miqdorini minimallashtiradigan boshqaruv tizimini tadqiq qilish orqali aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish samaradorligini oshirishga erishishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha tadqiqot va tajribalarni o'rganish, mavjud favqulodda vaziyatlar davlat tizimi boshqaruv organlari, tuzilishi, faoliyati va tadbirlarini tadqiq etish;

respublikamiz hududida favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha amaldagi chora-tadbirlarni tahlil qilish, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishda kuch va vositalarni boshqarishning nazariy asoslarini o'rganish;

respublikamiz hududida sodir bo'lgan favqulodda vaziyat (sel-suv toshqinlari, zilzila va texnogen avariya)lar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha bajarilgan tadbirlarni tadqiq etish va seysmik faol hududlardagi aholi yashash punktlari va sanoat obyektlari uchun mavjud xavfli omillarni tahlil qilish;

favqulodda vaziyat (sel-suv toshqinlari, zilzila va texnogen avariya)larni bartaraf etishda boshqaruv organlari tomonidan axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilish bo'yicha tadbirlarining algoritmi va modellarini ishlab chiqish;

o'rganish natijalari asosida favqulodda vaziyatlarda avtomatlashtirilgan boshqaruvni tashkil etish istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ishlab chiqilgan algoritm va modellarni Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi boshqaruv organlari, kuch va vositalari bilan o'tkaziladigan qo'mondonlik shtab o'quv mashqlarida amaliy tajribani sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda boshqaruv tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini Toshkent va Jizzax viloyatlari Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi boshqaruv organlari, kuch va vositalarini mahalliy va lokal favqulodda vaziyatlarni oqibatlarini bartaraf etishdagi harakatlarini boshqarish algoritmi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Favqulodda vaziyatlarni boshqarish tizimining nazariy va emperik, taqqoslash, matematik statistika, matematik tahlil va sintez, modellashtirish, guruhlash va grafik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholi va hududlar uchun xavf tug'diruvchi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayoni va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularni monitoring va bashorat qilishning matematik modeli ishlab chiqilgan;

favqulodda vaziyatlarning tabiiy va texnogen xususiyatlarini, ularning rivojlanish omili va oqibatlarini hisobga olgan holda, sel oqimlari, toshqin suvlari, zilzilalar hamda kimyoviy xavfli obektlardagi avariya oqibatlarini bartaraf etish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan metodologiyasi ishlab chiqilgan;

favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda boshqaruv jarayonining tezkorligi, hamkorlik darajasi, jabrlanganlarga yordam ko'rsatish samaradorligi oshirish, favqulodda vaziyatlar ko'lamining salbiy oqibatini chegaralash, moddiy zarar miqdorini kamaytirish ko'rsatkichlarini kompleks baholashning boshqaruv algoritmi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan model va algoritmlar asosida tuzilmalarning harakat tezkorligi 12–15 % ga, hamkorlik samaradorligi 10 % ga, jabrlanganlarni qutqarish 20 % ga, favqulodda vaziyatlar ko'lamini chegaralash 7–10 % ga, moddiy zarar miqdorini kamaytirish 25–30 % ga oshirilgan, sanitar yo'qotishlarni esa 15–20 % ga kamaytirish imkoniyati mavjudligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hangi samarali boshqaruv metodlari asosida ishlab chiqilgan algoritm va modellar Toshkent viloyati hamda Jizzax viloyatida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi boshqaruv organlari, kuch va vositalarining o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirishda tashkiliy-amaliy jihatdan yuqori samaradorlikni ta'minlagan;

ishlab chiqilgan boshqaruv algoritmlari va modellarini qo'llash natijasida boshqaruv tizimining umumiy samaradorligi 15–20 % gacha oshishi asoslangan bo'lib, bu hududlarga xos tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini kamaytirish imkonini beradi;

mazkur yondashuvlar mahalliy va lokal darajada favqulodda vaziyatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, shuningdek favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va ularni bartaraf etish jarayonlarida sarflanadigan moddiy-texnik xarajatlarni tejash imkoniyati yaratilgan;

ishlab chiqilgan boshqaruv algoritmlari va modellarining tajriba-sinovdan o'tkazilgani hamda ularni amaliyotga joriy etishga to'liq tayyor ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uning zamonaviy uslub va vositalaridan foydalangan holda olinganligi, samarali boshqaruv usullarining qo'llanganligi va olingan natijalarni amaldagi boshqaruv natijalari bilan solishtirish orqali asoslanganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro mutanosibligi hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati favqulodda vaziyatlarning rivojlanishi va oqibatlarini baholashga imkon beruvchi matematik modellar ishlab chiqilganligi, sel-suv toshqinlari, zilzila va kimyoviy avariya uchun yaratilgan modellar xavf omillari, tarqalish jarayoni va zarar ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish imkonini berib, prognozlash aniqligini oshirilganligi, shuningdek, boshqaruv jarayonining tezkorligi, hamkorlik sifati, moddiy zarar va sanitar yo'qotishlarni baholovchi integrallashgan algoritm taklif etilganligi hamda favqulodda vaziyatlarni boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirib, zamonaviy axborot texnologiyalariga tayanuvchi yangi ilmiy model shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati – ishlab chiqilgan boshqaruv algoritmlari va modellar Toshkent hamda Jizzax viloyatlarida o'tkazilgan qo'mondonlik-shtab mashqlarida sinovdan o'tib, harakat tezkorligi, hamkorlik samaradorligi va qutqaruv choralarining natijadorligini sezilarli oshirganligi, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot kuch va vositalarni optimal taqsimlash, axborot almashinuvi va tezkor qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni takomillashtirish asosida:

Tadqiqot tajribasida aholi va hududlar uchun xavf tug'diruvchi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayoni va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularni monitoring va bashorat qilishning matematik modeli ishlab chiqilgan, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha boshqaruvni tashkil etish harakatlar algoritmining amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Maxsus avariya tiklash boshqarmasiga va Jizzax viloyati hokimligiga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Maxsus avariya tiklash

boshqarmasining 2023-yil 21-iyun kunidagi 442-sonli, Jizzax viloyati hokimligining 2023-yil 16-oktabr kunidagi 01-1711-sonli ma'lumotnomalari).

Natijada, ishlab chiqilgan model va algoritmlar asosida tuzilmalarning harakat tezkorligi 12–15 % ga, hamkorlik samaradorligi 10 % ga, jabrlanganlarni qutqarish va yordam ko'rsatish 20 % ga, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha boshqaruvni tashkil etish harakatlar algoritmi qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda favqulodda vaziyatlar ko'lami, moddiy zarar miqdori hamda sanitar yo'qotishlarni kamaytirishga erishilgan tadqiqot natijalari Jizzax va Toshkent viloyatlari FVBlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2024-yil 2-maydagi 2/4/21-1410-sonli ma'lumotnomalari).

Natijada, taklif etilayotgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha kuch va vositalar boshqaruvining algoritm va modellari favqulodda vaziyatlar ko'lamini chegaralash 7–10 % ga, moddiy zarar miqdorini kamaytirish 25–30 % ga oshirilgan, sanitar yo'qotishlarni esa 15–20 % gacha kamaytirish imkonini bergan

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiyaga kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli qisqartmalar ro'yxati ba ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning asosiy hajmi 120 varoqni tashkil qiladi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda zarurati asoslangan bo'lib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, o'rganilganlik darajasi va tadqiqot usullari, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida O'zbekiston Respublikasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga oid meyoriy-huquqiy xujjatlarda boshqaruvni tashkil etish talablari va tadbirlari yoritilgan holda boshqaruv tizimi yaxshi tashkillashtirilgan va faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, kuch va vositalarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkonini berishi hamda bundan tashqari samarali boshqaruv orqali

kuch va vositalarning oʻrtacha imkoniyat darajasini oshirishga erishish mumkinligi ilmiy-uslubiy asoslab berilgan.

Boshqaruvni samaradorligini obektiv va umumiy baholashda, shunday koʻrsatkichlar yigʻindisini koʻrsatish lozimki, unda boshqaruvni tashkillashtirish boʻyicha qaror qabul qilish, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT) kuch va vositalari boshqaruvi sohasidagi tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, boshqaruv tizimining holati kabi boshqaruv jarayonining asosiy tomonlarini ochib berilishi zarur. Faqat shundagina, tadbirlarni tezkor, iqtisodiy, texnik, safarbarlik boʻyicha maqsadga muvofiqligini sifatli–miqdoriy jihatdan xulosa qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasi FVDT tashkiliy-funksional tuzilmasi

Boshqaruvning samaradorligini bajarilgan ishlarga qarab, mantiqiy baholanadi.

Dissertatsiyaning **“Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda boshqaruvni amalga oshirish uslubiyoti”** nomli ikkinchi bobida respublikamiz hududida sodir boʻlgan sel-suv toshqinlarining tadqiqi, seysmik faol hududlardagi aholi yashash punktlari va sanoat obʻektlari uchun mavjud xavfli omillar, yillar davomida sodir boʻlgan favqulodda vaziyatlar hamda favqulodda vaziyatlarda boshqaruvning oʻziga xos jihatlari boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilingan.


2008-2021-yillar davomida respublika hududida jami 501 ta sellar kuzatilgan boʻlib, yillar kesimida quyidagicha natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

2009-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida kuzatilgan sellar


Respublika boʻyicha:	Yillar													
		2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
	soni	9	22	14	39	48	33	132	25	7	29	47	21	75
	%	1,8	4,4	2,8	7,8	9,6	6,6	26,3	5,0	1,4	5,8	9,4	4,2	15,0
	Jami	501												

2016-2021-yillar davomida respublikamiz hududlarida sodir boʻlgan sel toshqinlari tahlili 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Sel toshqinlarining hududlar bo'yicha diagrammasi

Kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida suvlarni sathi keskin ko'tarilib, daryo, ko'llarga sig'maydi va natijada ekin maydonlarni, turar-joy massivlarini, yo'llarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Oqibatda juda katta moddiy zarar ko'rib, insonlar o'limiga va hayot faoliyatini izdan chiqishiga olib keladi. Suv toshqinlarining yuzaga kelish sabablari 3-rasmida keltirilgan.




3-rasm. Suv toshqinining paydo bo'lish sabablari

O'zbekiston Respublikasi hududida 1996-yildan 2022-yilga qadar sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish sabablari va xususiyatlariga ko'ra tadqiq qilinganda tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar 447 ta (50,9%)ni, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar 431 ta (49,1%)ni tashkil etgan. Tahlil natijalari 4-rasmida keltirilgan.



4-rasm. Suv toshqinining paydo bo'lish sabablari

Seysmik to'lqinlar manbai muayyan hajmga ega bo'ladi va uzunligi esa 1 km dan 100 km gacha yoki undan ham ortiq bo'lishi mumkin. Biroq nazariy jihatdan tadqiqotlar olib borilganda, zilzila manbai giposentr (fokus) deb ataladigan nuqta sifatida ifodalanadi. Giposentrning Yer yuzasiga vertikal ravishdagi proyeksiyasi epitsentr (markaz) deb ataladi (5-rasm). Gipo- va epitsentrning joylashuvi seysmik to'lqinlarning kelish vaqti bilan belgilanadi.



5-rasm. Zilzilalar va ular natijasida sodir bo'ladigan to'liqlar sxemasi:


1 – giposentr; 2 – episentri; 3 – P – to'liqlar; 4 – S -to'liqlar; 5 – Lyav to'liqlari;
6 – Reley to'liqlari

Zilzila intensivligi J quyidagi 1-tenglamaga asosan aniqlanadi:

$$R=3+1,5M-3,51gR2+h2 \quad (1)$$

bu yerda, zilzila markazidan bo'lgan masofa R va chuqurlik h km da o'lchanadi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish harakatlarni boshqarish tizimining funksional tuzilishi barcha doiradagi muammolarni, favqulodda vaziyatlar tasnifiga tegishli shu jumladan ularni bashorat qilish bosqichlari, favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va harakat qilishga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek ularning oqibatlarini bartaraf etishni qamrab oladi (6-rasm).



6-rasm. Tizimni nazorat qilishning tipik funksional tuzilmasi

Aholiga oid ehtimoliy yo'qotishlar quyidagi ko'rinishdagi funktsiya 2-tenglama vositasida ifodalanadi:


$$V0=i=1Ij=i+1Ivijxi_j \quad (2)$$

bu yerda, vij – favqulodda vaziyatlarning rivojlanishi natijasida va V_j hodisalar sodir bo'lishi oqibatida (i, j) egri chizig'iga muvofiq tarzda insonlarga oid yo'qotishlar; (i, j) egri chizig'i qutqarish qilinsa $xij=0$, aks holda $xij=1$ bo'ladi.

Favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bartaraf etishda zarar miqdori va yo‘qotishlarni oldini olish va kamaytirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar komplekslarini, strategik va tezkor boshqarishning nazariy va uslubiy qoidalarini va modellari va usullarini tahlil qilish va algoritmlar ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiyaning **“Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda boshqaruv tizimlarini takomillashtirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida aholi va hududlar uchun xavfli bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari, rivojlanishi va oqibatlarini tahlil qilish, ularning eng muhim belgilari va xususiyatlarini inobatga olgan holda matematik modellashtirilgan, sel oqimlari va toshqin suvlari, zilzila oqibatlarini hamda kimyoviy xavfli obyektlardagi avariya oqibatlarini bartaraf etish tadbirlari samaradorligini oshirish modellari ishlab chiqilgan, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishning mahalliy va ob’ekt darajalaridagi asoslari, boshqaruv organlari tomonidan axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilish hamda Toshkent va Jizzax viloyatlari FVDT boshqaruv organlari, kuch va vositalari bilan o‘tkazilgan qo‘mondonlik shtab o‘quv mashqlaridagi amaliy tadqiqotlari o‘tkazilgan.

Ushbu modellar favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishining shaxsiy modellarini, zararli ta’sir modellarini, vayronagarchilik ta’siri va boshqa modellarni o‘z ichiga oladi. Favqulodda vaziyat (FV) larning tipik matematik modelining tuzilishi va oqibatlarni bashorat qilishda foydalanish chizmasi 7-rasmda ko‘rsatilgan.




7-rasm. Matematik model tuzilmasi va uning favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bashorat qilishda qo‘llash blok-sxemas

Xavfning miqdoriy ta’rifi R salbiy hodisaning yuzaga kelishi ehtimoli P ning kutilgan zarar miqdori V ga ko‘paytmasi 3-tenglama sifatida ifodalanishi mumkin:

$$R = P \cdot Y \quad (3)$$

Daryoning vaqt birligidagi oqim hajmi suv sarfi, deb ataladi. Odatda, suv sarfi Q harfi bilan belgilanadi va m^3/s birlikda ifodalanadi. Suv oqimidagi o'zgarishlarning xronologik grafigi oqim gidrografi deyiladi.


Suv toshqini oqibatlarini bashorat qilishda daryo oqimi kesimini sxematik tarzda uchburchak kesim (8-rasm, a) yoki trapetsiya ko'rinishidagi kesim (8-rasm, b) yordamida ifodalash mumkin.



8-rasm. Daryo kesimining hisoblangan sxemasi:

a – uchburchak kesim, b – trapetsiya ko'rinishidagi kesim

Hozirgi kunda Respublika hududida olib borilgan ko'p yillik geologik, seysmotektonik va seysmostatistik izlanishlar natijasida 30 dan ortiq kuchli zilzilalar sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan seysmogen zonalar ajratilib, kompleks usullar orqali ularning seysmik potentsiallari baholangan (9-rasm).




9-rasm. O'zbekiston hududining seysmogen zonalar va kuchli zilzilalari epitsentralari sxematik xaritasi

Favqulodda vaziyatlarda boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari, qaror qabul qilish uchun vaqtning doimiy yetishmasligi, katta hajmdagi axborotni qayta ishlashga bo'lgan ehtiyoj, avtomatlashtirish vositalarining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishni, shuningdek, qaror qabul qiluvchi shaxslarning yuksak bilim va tajribasini talab qiladi. Muloqot orqali qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash axborot texnologiyalari qaror qabul qilish va qo'llab-quvvatlash uchun axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilishning samarali algoritmlarini qo'llash orqali qiyin vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ta'minlanadi.

Sel oqimlar va toshqin suvlari, zilzila hamda kimyoviy xavfli moddalar bilan bog‘liq avariylar oqibatlarini bartaraf etish tadbirlarini FVDT boshqaruv organlari va kuchlari bilan tashkil etish usullari tadqiq etilib, olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida boshqaruv organlari uchun FVDTni sel-suv toshqinlari bilan bog‘liq hamda kimyoviy xavfli avariylar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda boshqaruvni tashkil etish harakatlar algoritmlari ishlab chiqildi.

Sel-suv toshqinlari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv algoritmgiga dasturiy ta‘minoti yaratildi (10-rasm).



10-rasm. Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv algoritmi dasturiy ta‘minoti

Ishlab chiqilgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruvni tashkil etish harakatlar algoritmi 2023-yil 23-25-may kunlari Jizzax viloyatida hamda 2023-yilning 18-20-iyul kunlari Toshkent viloyatida o‘tkazilgan hamkorlikdagi qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari davomida amaliyotga joriy etilib (11-rasm), jabrlanganlarni qutqarish va yordam berishda harakatlanish tezkorligi hamda hamkorlikning samaradorligi osirish, favqulodda vaziyatlar ko‘lamini chegaralash, moddiy zarar miqdorini hamda sanitar yo‘qotishlarni kamaytirishga erishildi.



11-rasm. Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida o‘tkazilgan QShO‘M

Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida o‘tkazilgan QShO‘Mning g‘oyasi va o‘tkazish rejasiga asosan zilzila bilan bog‘liq talofatlarni hamda oqibatlarini

bartaraf etishga jalb etiladigan zaruriy kuch va vositalarni hamda talofatning kutilishini matematik hisoblash ishlari amalga oshirildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra bitta uch qavatli pishiq g'ishtli uy $1,9 \text{ m}^3$ vayrona hosil qiladi. Toshkent viloyati Bo'ka tumanida 34 ta 2-4 qavatli, 5 ta 5 qavatli qo'shib hisoblanganda jami 39 ta ko'p qavatli uylar mavjud bo'lib, zilzilaning intensivligi 8 ballni tashkil qilganda, $39 \times 1,9 = 74,1 \text{ m}^3$ vayrona hosil bo'ladi. Tuman bo'yicha jami 10551 ta xom g'ishtli yoki paxsa uylar mavjud bo'lib, ular hosil qiladigan vayronalar hajmi $10551 \times 0,26 = 2743,2 \text{ m}^3$ ni tashkil qiladi. Ko'p qavatli uylar bilan birgalikda hisoblaganda $74,1 + 2743,2 = 2817,3 \text{ m}^3$ vayrona hosil bo'ladi. Uch qavatli bitta uyning vayronasi $0,016 \text{ km}^2$ maydonni egallaydi. Bunda jami vayronalar egallagan maydon $0,016 \times 39 = 0,62 \text{ km}^2$ ni tashkil qiladi. Xom g'ishtli uydan hosil bo'lgan vayrona $0,01 \text{ km}^2$ maydonni egallaydi. Bunda jami vayronalar egallagan maydonni hisoblaganimizda $0,01 \times 10551 = 105,51 \text{ km}^2$ ni tashkil qiladi. Jami Bo'ka tumani bo'yicha vayronalar egallagan maydon $106,13 \text{ km}^2$ ni tashkil qiladi.

$$N_{z.k.v.} = 0,15 \cdot W \cdot P_{s.i.h.} \cdot T \cdot K_{v.t.k.} \cdot K_{t.p.k.} \cdot K_o \quad (4)$$

Bunda: $N_{z.k.v.}$ - qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari soni;

W - bino va inshootlar buzilishidan hosil bo'lgan vayronalar hajmi, m^3 ;

$P_{s.i.h.}$ - vayronani tozalash uchun sarflanadigan ish hajmi, odam - s/m^3 , 1,8 odam - s/m^3 deb olinadi;

T - qutqaruv ishlari olib borish uchun sarflanadigan vaqt, soatda;

$K_{v.t.k.}$ - vayrona tarkibini hisobga oluvchi koeffitsiyent 1,0 ga teng;

$K_{t.p.k.}$ - tungi paytda ish samarasining tushib ketishini hisobga oluvchi koeffitsiyent. Bu koeffitsiyent 1,5ga teng.

K_o - ob-havo sharoitini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

$$N_{z.k.v.} = 0,15 \cdot \frac{106,13 \cdot 191,03}{62} \cdot 1 \cdot 1,5 \cdot 1,5 = 110$$

O'zbekiston Respublikasi FVD Tning favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish harakatlari tartibi va tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan harakatlar rejasining taqvim jadvaliga ko'ra, asosiy tadbirlar soni 16 ta va ularni bajarish uchun ketadigan umumiy vaqt miqdori 3 sutka (72 soat)dan iborat bo'ladi.

Tadqiqot ishi natijasida ishlab chiqilgan va taklif etilayotgan sel oqimlari, toshqin suvlari va zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda boshqaruvni tashkil etishning samarali algoritmidagi tuzilgan asosiy tadbirlar soni 62 ta, ya'ni amaldagi rejaga nisbatan 4 barobar ko'p bo'lsada, ularni bajarish uchun sarflanadigan umumiy vaqt miqdori 2,5 sutka (62 soat)ni tashkil etgan (unimdorlik 12-15%).


Yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar, quyidagi tadqiqotlar va tegishli matematik formulalariga muvofiq, asoslanadi: $\text{Salgor} = A \text{ soat} / 72 / 62 T \text{ soat}$. Bu yerda algoritimning vaqt me'yori bo'yicha samaradorligi tadbirlarni amaldagi bajarish soat miqdorida 72 soatga tadbirlarni tezkor bajarish soat miqdorida 62 soatni nisbati = 1,16 ga teng. V – natijadorlik, A -tadbirlar soni, T - sarflangan vaqt.

$$V = A : T$$

$$A = V * T$$


$$T = A : V$$

Shunga ko‘ra, asosiy tadbirlar soni 16 ta va ularni bajarishga ketadigan umumiy vaqt miqdori 3 sutka (72 soat)ga nisbatan tadqiqot ishida ishlab chiqilgan algoritimdagi asosiy tadbirlar soni 62 ta, ya’ni amaldagi rejaga nisbatan 4 barobar ko‘p bo‘lsada, ularni bajarish uchun sarflanadigan umumiy vaqt miqdori 2,5 sutka (62 soat)ni tashkil etgan (samaradorlik 12-15%, 12-rasm).



12-rasm. Asosiy tadbirlar bajarilishida vaqtning samaradorligi

Amaldagi mavjud Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish rejasida jami 22 ta FVDqT mas’ul xizmatlarining jalb etilishi belgilangan bo‘lsa, ishlab chiqilgan algoritim va modulda 34 ta xizmatlar kuch va vositalari jalb etilishi taqsimlangan. Buning natijasida zaruriy kuch va vositalarni to‘g‘ri, to‘liq va zaruriy miqdorda jalb etishni ta’minlash samaradorligi ko‘rsatkichi amaldagi rejaga nisbatan 10% ortgan (13-rasm).



13-rasm. Jalb etiladigan FVDT xizmatlari soni


Jizzax viloyati Qo‘mondonlik shtab o‘quv mashqida sel oqimlari va suv toshqinlari bo‘yicha ishlab chiqilgan xarakatlari va tadbirlari algoritim va modellari amalda sinovdan o‘tkazilishi natijasida qutqarish va yordam berish ishlaridagi tezkorlik va xamkorlikni to‘g‘ri belgilanishi orqali jabrlanganlarni qutqarish

va yordam berish ishlari hajmi vaqt 72 soatdan 62 soatga kamayishi hisobiga nisbatan 16%ga ortgan.

Kimyoviy avariylarni bartaraf etishni boshqarish va harakat qilish algoritmi va modelida belgilangan 40 ta tadbirlar bosqichli va ketma-ket bajarilishi natijasida favqulodda vaziyatlar tarqalishi mumkin bo'lgan hududga nisbatan favqulodda vaziyat ko'lamini chegaralash 7-10%ga erishilgan.

Favqulodda vaziyatlar ko'lamini chegaralash ishlarini samaradorligi 7-10% erishilishi natijasida zilzila, suv toshqini va kimyoviy avariylardagi moddiy zarar miqdorini 25-30% kamayishi hisoblangan.

Jabrlanganlarni qutqarish va yordam berish ishlaridagi tezkorlik va FVDqT xizmatlari hamkorligining natijadorligi 10-15% ortishi orqali umumiy sanitar yo'qotishlar 15-20 % kamayishi hisoblangan (14-pacm).



14-rasm. Sanitar yuqotishlar miqdorini kamaytirish samaradorligi

Ishlab chiqilgan favqulodda vaziyatlarda boshqarish va harakat qilish algoritmi va modeli asosida FVDqT boshqaruv organlari, kuchlari va vositalari o'zaro hamkorligi 10-15% ortishi bilan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish harakatlari natijadorligi 15-20% erishilgan.

Ko'rib chiqilgan algoritmlardan, FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari faoliyatini Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilishning samaradorligini oshirishda FVDT tashkiliy-funksional tuzilmasi bo'yicha respublika, mahalliy, obyekt darajalari va boshqaruv organlari hamda faoliyat rejimlari (kundalik, yuqori tayyorgarlik, FV) bo'yicha boshqaruvning rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash funksiyalarida qo'llanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Ushbu "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni takomillashtirish" mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hududlarda favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish, bashoratlash, oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish masalalariga jalb etilishi lozim bo'lgan kuch

va vositalarni boshqarish ta'sirchan mexanizmlari joriy etish ishlari to'liq darajada tashkil etilmaganligi o'z isbotini topgan.

2. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha fuqarolarning xavfsiz hayot faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar qatoriga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning uzluksiz sutkalik monitoringi, tezkor boshqaruv va o'z vaqtida hamkorlikda harakat qilishning yagona samarali tizimi tashkil etilmaganligi o'z isbotini topgan.

3. Boshqaruvni tashkil etishni amalga oshirish tadbirlari muayyan favqulodda vaziyatga bog'liq bo'lib, FV to'g'risida axborot olish va tahlil qilish, qaror qabul qilish, qidiruv-qutqaruv ishlari olib boriladigan joyga qutqaruvchilar va texnikani yetib borishini ta'minlash, QQInni bevosita o'tkazish, jabrlanganlarni olib chiqish va transportirovka qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va evakuatsiya qilish, moddiy boyliklarni asrab qolish hamda FV manbaini lokalizatsiya qilish, avariya-tiklash ishlarini o'tkazish asosiy bosqichlari va ketma-ketlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

4. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfi to'g'ilganda yoki sodir bo'lganda boshqaruv organlarining FVDtni boshqarishga oid qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda, rahbarlarning boshqaruvdagi samaradorligi asosan qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan axborotning ishonchliligini va o'z vaqtida taqdim etilishiga bog'liqligi hamda boshqaruv algoritmlarini qo'llash FVDt faoliyati rivojlanishining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

5. Aholi va hududlar uchun xavfli bo'lgan favqulodda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari, rivojlanishi va oqibatlarini tahlil qilish, ularning eng muhim belgilari va xususiyatlarini inobatga olgan holda matematik modellashga erishildi.

6. Sel oqimlari va toshqin suvlari, zilzila hamda kimyoviy xavfli obektlardagi avariya oqibatlarini bartaraf etish tadbirlari samaradorligini oshirish modellari tadbir etildi.

7. Favqulodda vaziyatlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning oqibatlarini bartaraf etishda tezkorligi vaqt meyor, hamkorlikning samaradorligi, jabrlanganlarni qutqarish va yordam berish, favqulodda vaziyatlar ko'lamini chegaralash, moddiy zarar miqdorini va sanitar yo'qotishlarni kamaytirish ko'rsatkichlari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv organlari uchun FVDtni sel-suv toshqinlari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni hamda kimyoviy xavfli avariya bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha boshqaruvni tashkil etish harakatlar algoritmlari joriy etildi.

8. Taklif etilayotgan ishlab chiqilgan algoritmlar va modellar Toshkent viloyati va Jizzax viloyati FVDqT boshqaruv organlari, kuch va vositalari hamkorligini muvofiqlashtirishda tashkiliy-amaliy jihatdan sinovdan o'tkazilib, tuzilmalarning harakatlanish tezkorligi vaqt meyor bo'yicha 12-15% gacha, hamkorlikning samaradorligi 10% gacha, jabrlanganlarni qutqarish va yordam berish 20% gacha, favqulodda vaziyatlar ko'lamini chegaralash 7-10% gacha oshishiga, moddiy zarar miqdorini 25-30% gacha, sanitar yo'qotishlar 15-20% gacha kamaytirishga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.19/2025.27.12.T.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА ПО
ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

АБДУНАБИЕВ ТОЛИБ АБДУМАЛИКОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕРРИТОРИЙ
ОТ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ ПРИРОДНОГО И
ТЕХНОГЕННОГО ХАРАКТЕРА**

**05.10.02 – Безопасность в чрезвычайных ситуациях. Пожарная промышленность,
ядерная и радиационная безопасность**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/T2974.

Диссертация выполнена в Академии МЧС Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (akademiya.fvv.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Курбанбаев Шухрат Эргашевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Гаппаров Фуркат Ахмадович
доктор технических наук (DSc), профессор

Сабилов Эркабой Эркинбаевич
доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент.

Ведущая организация: Наманганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «__» _____ 2026 г. в __:00 в зале заседаний Научного совета DSc.19/2025.27.12.T.01.01 при Академии Министерства по чрезвычайным ситуациям. (Адрес: 100102, Ташкент, ул.Дустлик, д.5. Тел.: (99871)258-56-57; факс: (99871)258-56-57, e-mail: info@akademiya.fvv.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии МЧС (зарегистрирована под номером _____. (Адрес: 100102, Ташкент, ул.Дустлик, д.5. Тел.: (99871) 258-56-57; факс: (99871) 258-56-57, e-mail: info@akademiya.fvv.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2026 г.
(реестр Протокола рассылки № _____ от «__» _____ 2026 г.)

Р.И.Исмаилов
Председатель Ученого совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Қ.Х.Якубов
Ученый секретарь Ученого совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

Р.Р.Нурматова
Председатель Научного семинара при Ученом
совете по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в последние годы наблюдается значительный рост масштабов и последствий чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера. Подобные ситуации представляют серьезную угрозу жизни и здоровью населения, социально-экономической стабильности и устойчивому развитию регионов, требуя совершенствования системы защиты от чрезвычайных ситуаций на научной основе. В частности, эффективное управление силами и средствами в процессе возникновения чрезвычайных ситуаций, повышение способности руководителей и сотрудников органов управления принимать оперативные решения, а также заблаговременное тщательное планирование мероприятий по защите населения являются одной из актуальных задач в глобальном масштабе.

В мире широко проводятся научные исследования, направленные на совершенствование системы управления при предотвращении чрезвычайных ситуаций и ликвидации их последствий. В зарубежной практике важным направлением признается разработка моделей управления и принятия решений с использованием информационно-коммуникационных технологий, основанных на анализе рисков, а также внедрение современных учебно-методических механизмов подготовки руководящих кадров к действиям в чрезвычайных ситуациях. В то же время сохраняется потребность в совершенствовании алгоритмов и моделей, служащих повышению эффективности обмена информацией в условиях чрезвычайных ситуаций, оперативной оценке ситуации и оптимизации управленческих решений.

В нашей республике особое значение приобретают вопросы адаптации системы управления к современным требованиям в рамках проводимых реформ в области защиты от чрезвычайных ситуаций, в том числе административных реформ «Нового Узбекистана». Согласно статистическим данным, доля чрезвычайных ситуаций техногенного характера высока, и наблюдается, что их масштаб и причиняемый ущерб более серьезны по сравнению с природными чрезвычайными ситуациями. Это предопределяет необходимость разработки научно обоснованных подходов, направленных на развитие профессиональных навыков, умений и способностей руководителей органов управления государственной системы предупреждения и действий в чрезвычайных ситуациях по управлению силами и средствами. С этой точки зрения, совершенствование алгоритмов управления, обмена информацией и принятия решений в чрезвычайных ситуациях, исходя из источников и факторов риска, обосновывают актуальность и востребованность темы данной диссертации.

В опыте государственных систем гражданской защиты и ликвидации чрезвычайных ситуаций развитых зарубежных стран все большее внимание уделяется современным сетевым формам управления, что остается одним из актуальных вопросов на уровне государственной политики. Необходимо разработать эффективные методы организации и проведения аварийно-

спасательных, горноспасательных, поисково-спасательных, водно-спасательных и радиационно-химических защитных работ в чрезвычайных ситуациях, поскольку отсутствие оперативной и правильной организации управления в чрезвычайных ситуациях наносит большой ущерб жизни и здоровью людей, их имуществу и окружающей природной среде. Показатели подготовки руководящих работников и специалистов органов управления в этой области также требуют проведения научных исследований по совершенствованию методов действий, обладающих высокоэффективными характеристиками.

В этой сфере приняты Указы Президента Республики Узбекистан от 1 июня 2017 г. № УП-5066 «О мерах по коренному повышению эффективности системы предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций» и от 10 апреля 2019 г. № УП-5706 «О внедрении качественно новой системы предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций, а также обеспечения пожарной безопасности в Республике Узбекистан», Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 апреля 2019 г. № ПП-4276 «Об организационных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности структур по чрезвычайным ситуациям».

Указанные положения закреплены законами Республики Узбекистан от 13 сентября 2021 г. № 713 «Об обеспечении сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан», от 15 декабря 2021 г. № 737 «О чрезвычайном положении» и от 17 августа 2022 г. № 790 «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера».

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в 92-й цели «Укрепление безопасности и оборонного потенциала нашей страны, проведение открытой, прагматичной и активной внешней политики, предусматривающей создание эффективной системы предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций как приоритетного направления», утверждённой Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 января 2010 г. № 2 «Об утверждении Положения о порядке привлечения спасательных служб и спасательных формирований к ликвидации чрезвычайных ситуаций» и от 29 апреля 2023 г. № 171 «О мерах по эффективной организации деятельности государственной системы предупреждения и действий в чрезвычайных ситуациях Республики Узбекистан».

